

## XALQARO MADANIY FESTIVALLAR VA ULARNING JAHON XALQLARINI YAQINLASHTIRISHDAGI O‘RNI

**Ravshanova Barno Ismatullayevna**

*O‘zDSMI “Madaniyat va san’at muassasalarini  
tashkil etish hamda boshqarish” ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalqaro madaniy festivallarning ijtimoiy – siyosiy hayotdagi o‘rni, mamlakatda turizm va iqtisodiyotni rivojiga qo‘shgan hissasi, jahon madaniy maydonida hamda millatlararo do‘stona munosabatlarni mustahkamlashdagi ahamiyati haqida so‘z boradi. Shuningdek, madaniy diplomatiya taraqqiyotini yuksaltirish, milliy madaniyat, yo‘qolmas an‘analarni dunyo sahnasiga olib chiqish masalalarini ko‘zda tutadi.

**Kalit so‘zlar:** Xalqaro, madaniyat, “yumshoq kuch”, festival, tadbir, millat, do‘stlik, iqtisod, hamkorlik, global, turizm, san’at, zamonaviy, milliy, maydon, tendetsiya, aholi, ijtimoiy.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль международных культурных фестивалей в социально-политической жизни, их вклад в развитие туризма и экономики страны, значение в мировом культурном пространстве, а также в укреплении дружеских межнациональных отношений. Кроме того, подчеркивается важность развития культурной дипломатии, вывода национальной культуры и исчезающих традиций на мировую арену.

**Ключевые слова:** международный, культура, «мягкая сила», фестиваль, мероприятие, нация, дружба, экономика, сотрудничество, глобальный, туризм, искусство, современность, национальный, пространство, тенденция, население, социальный.

**Annotation:** In this article, the role of international cultural festivals in socio-political life is a talk of the importance of international cultural festivals in the socio-political life, the importance of tourism and economy in the country in strengthening interethnic relations. He also envisages the development of cultural diplomacy, to bring national culture, the lost traditions to the world stage.

**Keywords:** international, culture, "soft strength", festival, event, nationalism, economics, cooperation, global, tourism, tenders, modern, national, fields, tenders, population, social.

Hozirgi globallashuv davrida xalqlar o‘rtasidagi madaniy hamkorlik, o‘zaro qadriyatlar almashinuvi va insoniyatni yaqinlashtirish jarayonida xalqaro madaniy festivallar

muhim vositalardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Festivallar san'at va ijobiy jarayonlarni namoyish etish maydoni, balki milliy o'zlikni anglash, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish hamda xalqlar o'rtasida o'zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qiluvchi universal platformadir. Shu bois, xalqaro madaniy festivallarni ilmiy nuqtayi nazardan o'rganish hozirgi zamon madaniyatshunosligi va sotsiologiyasining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Festival o'zi nima? Shu o'rinda festival so'zining fenomeni va uning mazmuniga qisqacha to'xtalib o'tadigan bo'lsak, "Festival" so'zi lotin tilidagi *festum* ( bayram ) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, qadimdan jamiyat hayotining madaniy, diniy va ijtimoiy ehtiyojlarini ifodolovchi ommaviy tadbir sifatida shakllangan. Zamonaviy talqinda festival – san'at, musiqa, teatr, kino, xalq og'zaki ijodi yoki boshqa madaniy ko'rinishlarni jamoaviy ravshda nishonlash va targ'ib qilishga qaratilgan xalqaro miqyosidagi madaniy hodisadir. Har bir xalqning madaniyati bilan tanishishda eng jonli va bevosita tanishuv imkonini taqdim etivchi bu aynan festivallardir. Har bir o'tkazilayotgan festivalning mohiyati va qamroviga qarab belgilangan joy xorijiy mehmonlar uchun yangi tashrif joyi hamda turistik zonalarni targ'ib qilib, mamlakatda turizm sohasini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Misol tariqasida keltirishimiz mumkin bo'lgan, joriy yilda O'zbekistonning diqqatga sazovor joylarida o'tkazilgan bir nechta festivallar haqida, jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq tumanidagi qariyb Orol dengizini yutib yuborgan, "Kemalar qabristoni" deya nom olgan sahroda o'tkazilgan "Stixiya" electron musiqa festivali. Ushbu festival O'zbekistondagi eng noodatiy festivallardan biri hisoblanib, sahroda ijodkorlar o'zligini namoyon etish uchun o'tkaziladi. Elektron musiqa, san'at va fanni uyg'unlashtirgan ushbu tadbirni 2018- yili bir guruh tashabbuskorlar o'ylab topishgan. O'tgan vaqt mobaynida festival, yaqin va uzoq xorij mamlakatlaridan 15 mingdan ziyod mehmonlarni o'ziga jalb qildi, sahroda o'z musiqasini qo'yish niyatida texno, xaus, embiyent va boshqa eksprimental janrlarning ijrochilari tashrif buyurgan. Mo'ynoq ushbu festivalning aniq bir nuqtasidir. Xilma-xil musiqiy dasturlardan tashqari festival doirasida mahalliy hudud va aholi hikoyalariga bag'ishlangan "STIXIYA N+1" forumi, art-installyatsiyalar namoyishi, mahorat darslari va yoga mashg'ulotlari, hamda mahalliy usta-hunarmandlar tomonidan ishlab chiqilgan eko-brendlar yarmarkasi ham o'tkazilishi ichki va tashqi turizmni rivojiga va milliy madaniyatni targ'ibotiga katta hissa qo'shadi.

Shu o'rinda yana bir festivalga, Xalqaro "Jaz" festivaliga e'tibor qaratsak. Bahor faslida Toshkent nafaqat kashtan va nastarin iforlariga, balki jaz sadolariga ham to'ldi. Poytaxt to'qqizinchi bor Xalqaro Jaz festivaliga mezbonlik qildi. Tadbir, an'anaviy ravishda, O'zbekiston madaniyati va san'atini rivojlantirish jamg'armasi, YUNESKO

vakolatxonasi va bir qator mamlakatlarning elchixonalari tomonidan tashkil etilib, Xalqaro forumlar saroyining yozgi maydonchasida AQSH, Germaniya, Fransiya, Isroil, Indoneziya, Polsha, Shveysariyadan kelgan taniqli xonanda va sozandalar, shuningdek, o'zbekistonlik jaz ijrochilari chiqish qildi. Xalqaro madaniy aloqalarni mustahkamlashda, xorijiy sayyohlarni jalb qilish, xalqlar o'rtasida madaniy muhitni yaratishda bunday festivallarning o'rni beqiyosdir. Namangan shaxrida o'tkaziladigan Xalqaro Gullar festivali, Xivada o'tkaziladigan xalqaro "Strongmen" bahodirlar musobaqasi, Buxoroda o'tkazilib kelinayotgan "Ipak va ziravorlar" xalqaro festivali, Samarqandda 2019-yildan buyon o'tkazilib kelinayotgan xalqaro "Samarkand Marathon" xayriya yugurish musobaqasi shular jumlasidandir. Ushbu festivallar davlatlararo do'stona munosabatlarni mustahkamlashda, madaniy diplomatiyani o'rnatishda muhim rol o'ynaydi.

Ho'sh, madaniy diplomatiya o'zi nima? Ushbu savolga Amerikalik siyosatshunos olim Jozef Nay nazariyasida bayon etilgan "yumshoq kuch" konsepsiyasidan javob olishimiz mumkin. Uning fikriga ko'ra, madaniyat davlatlararo munosabatlarda bevosita siyosiy ta'sir vositasiga aylanadi. Shu nuqtayi nazardan xalqaro festivallar millatlararo muloqot maydoni, davlatlarning ijobiy imidjini yaratish va milliy qadriyatlarni jahon miqyosida targ'ib qilish vositasi sifatida alohida o'rin tutadi. Yumshoq kuch deganda mamlakatning madaniyat, qadriyatlar va siyosat kabi majburiy bo'lmagan vositalar orqali boshqalarga ta'sir o'tkazish qobiliyati tushuniladi. Nayning fikricha, yumshoq kuch zamonaviy dunyoda xalqaro munosabatlarning hal qiluvchi jihati hisoblanadi. Mamlakatning yumshoq kuchi uchta asosiy manbaadan kelib chiqishi mumkinligini ta'kidlaydi: uning madaniyati (jumladan, til, musiqa, kino va adabiyot), ijtimoiy qadriyatlar va siyosatlar (demokratiya va inson huquqlari kabi) va tashqi siyosati (diplomatiya va rivojlanish yordami). Ijobiy imidjni yaratish va umumiy qadriyatlarga murojat qilish orqali mamlakatlar kuch va majburlash vositalaridan foydalanmasdan boshqalarni o'z manfaatlariga jalb qilishlari mumkin. Madaniyat millatning yumshoq kuchini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Nayning ta'kidlashicha, agar mamlakat madaniyati jahon miqyosida jozibali va hurmatga sazovor bo'lsa, u yumshoq kuch imkoniyatlarini oshiradi. Nay xalq diplomatiyasini mamlakatning yumshoq kuchini oshirish vositasi sifatida o'rganadi. U hukumatlar xalqaro tasavvurlarni ijobiy shakllantirish uchun diplomatik sa'y-harakatlar, madaniy almashinuvlar, ta'lim dasturlari va ommaviy axborot vositalari strategiyalaridan qanday foydalanishi mumkinligini tushuntiradi. Demak, madaniy diplomatiyada festivallar muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki madaniyat va san'at sohasining turli yo'nalishlarida dunyo xalqlarini hech qanday zo'ravonliklarsiz, hech bir bosimlarsiz,

bir maydonda birlashtirib, bir maqsad sari yo‘naltirishda xalqaro festivallar ayni muddao desak aslo mubolag‘a emas.

Xalqaro madaniy aloqalarda festivallarning ijtimoiy ahamiyati ham alohida o‘ringa ega bo‘lib, madaniy festivallar xalqlar o‘rtasidagi madaniy masofani qisqartiradi, tolerantlikni rivojlantiradi va insoniyatni yagona madaniy maydonga birlashtiradi. Shu bilan birga, ular turizm, iqtisodiyot va ta‘lim sohasida ham muhim ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bugungi globallashuv davrida xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalar tobora kengayib bormoqda. Xalqaro festivallar nafaqat san‘at va madaniyatning targ‘iboti, balki ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jarayonlarning ajralmas qismi sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Ular jamiyat hayotida madaniyatlararo muloqot, ijtimoiy faollik, milliy identitetni mustahkamlash va turizmni rivojlantirish kabi ko‘plab ijobiy ta‘sirlarni yuzaga keltiradi. Xalqaro festivallar turli millat, til, din va madaniyat vakillarini birlashtiruvchi muhim maydon vazifasini bajaradi. Bunday tadbirlarda ishtirokchilar bir-birining madaniy merosini yaqindan o‘rganadi, do‘stona munosabatlarni rivojlantiradi. YUNESCO tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan festivallar bunga yaqqol misoldir. Xalqaro festival o‘tkaziladigan hududda mahalliy hamjamiyatning faolligi ortadi, volontyorlik harakati kuchayadi, yoshlar o‘z iqtidorini namoyish etadi va yangi do‘stlar ortiradi, bu jarayon ijtimoiy integratsiya va hamkorlikni ta‘minlaydi. Har bir xalq festival orqali o‘z milliy urf-odatlarini, san‘atini namoyish etadi. Bu milliy g‘ururni oshiradi, o‘zlikni anglashni kuchaytiradi va xalqaro maydonda milliy madaniyatni targ‘ib etadi, siyosiy keskinliklarni yumshatishga xizmat qiladi. Ko‘plab sayyohlarni jalb etib, mahalliy iqtisodiyot rivojiga hissa qo‘shadi, turizm sohasi kengayadi, xizmat ko‘rsatish sifati yaxshilanadi, yangi g‘oyalar, tehnologiyalar va ijodiy yondashuvlarning almashinuvi uchun imkoniyat yaratadi. Bu esa san‘atkorlar, ijodkorlar va mutaxassislarning tajriba almashuvi hamda ijodiy hamkorligini rivojlantiradi.

Bugungi kunda dunyoda yuzlab xalqaro madaniy festivallar mavjud. Masalan; jahon kinosining yirik madaniy voqeasi Fransiya davlatida o‘tkazilib kelinayotgan “Kan” xalqaro festivali, zamonaviy san‘atning xalqaro maydoniga aylangan Italiya shahrining “Venetsiya Biennalesi” festivali, teatr va musiqa san‘atining markazlaridan biri bo‘lgan Buyuk Britaniyaning “Edinburg” xalqaro festivali, xalq ijodi va musiqaning global ko‘rinishini tarannum etuvchi Braziliyaning “Rio-de-Janeyro” karnavali va O‘zbekistonning ko‘hna Samarqand shahrida o‘tkazilib kelinayotgan “Sharq taronalari” xalqaro festivallari turli xalqlar musiqiy merosining yaqinlashuv maydoni hisoblanadi. XXI – asrda festivallar faqatgina an‘anaviy maydonlarda emas, balki onlayn formatda ham o‘tkazilmoqda. Virtual konsertlar, onlayn ijodiy ko‘rgazmalar, raqamli san‘at festivallari yangi shakl sifatida shakllandi va madaniyatni global

auditoriyaga tezkor yetkazish imkonini bermoqda. Ushbu festivallarni o'tkazilishini qo'llab-quvvatlovchi YUNESCO, TURKSOY, ISESCO kabi xalqaro tashkilotlar festivallarni o'tkazilishiga bevosita homiylik qilish bilan bir qatorda, ularning ilmiy, tashkiliy va diplomatic asoslarini mustahkamlamoqda. YUNESCO tashabbusi bilan o'tkaziladigan festivallar milliy madaniyatlarni asrab-avaylash va targ'ib qilishning samarali vositasiga aylangan.

O'zbekiston tajribasida xalqaro madaniy festivallar, mamlakat mustaqillikka erishgach, xalqaro madaniy festivallar orqali o'zining boy tarixiy va madaniy merosini dunyo miqyosida namoyish eta boshladi. Bu jarayon mamlakatning xalqaro imidjini mustahkamlash va milliy madaniyatini keng targ'ib qilishga xizmat qilmoqda. 1997-yildan buyon Samarqandda o'tkazilib kelinayotgan "Sharq taronalari" festivali xalqaro musiqiy hamkorlikning yirik maydoniga aylangan. Unda yuzlab davlatlardan san'atkorlar ishtirok etib, Sharq va G'arb musiqiy an'analarini bir sahnaga olib chiqmoqda. Bu festival O'zbekistonni jahon madaniy maydonida yirik markaz sifatida tanitmoqda.

Ana shunday festivallardan yana biri xalqaro Maqom san'ati festivalidir. Maqom san'ati Sharq xalqlari, xususan, o'zbek xalqining eng qadimiy va yuksak musiqiy meroslaridan biridir. U xalqning ruhiy-ma'naviy hayoti, estetik qarashlari va badiiy tafakkurini mujassam etgan bebaho boylikdir. Bugungi globallashuv jarayonida milliy merosni asrab-avaylash, uni xalqaro miqyosda targ'ib qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Shu maqsadda 2018-yildan buyon O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan Shahrisabz shahrida "Xalqaro maqom san'ati" festivali o'tkazilib kelinmoqda. Mazkur festival qisqa davrda nafaqat milliy, balki xalqaro darajada keng e'tirof etilib, madaniyatlararo muloqotning samarali maydoniga aylandi. 2018-yilda maqom san'ati YUNESCOning insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro'yhatiga kiritilganidan so'ng, O'zbekistonda bu yo'nalishga e'tibor yanada kuchaydi. Maqom san'ati festivalini o'tkazish borasida oldinga bir nechta maqsadlar belgilandi, jumladan, maqom san'atini chuqur o'rganish, rivojlantirish va kelajak avlodga yetkazish, dunyo xalqlari o'rtasida maqom san'ati orqali madaniy hamkorlikni mustahkamlash, xalqaro ilmiy hamjamiyat e'tiborini maqom merosiga qaratish, turizm va madaniy diplomatiya sohasida O'zbekistonning o'rni kuchaytirish kabi vazifalar belgilab olindi. Festival Shahrisabzda – buyuk sarkarda Amir Temur vatani va tarixiy meros maskanida o'tkazilishi bilan ham alohida ramziy ma'noga egadir. Festivalga O'zbekistondagi maqom ansambllari bilan bir qatorda, Misr, Eron, Hindiston, Turkiya, Tojikiston, Turkmaniston kabi ko'plab mamlakatlardan mashhur ijodkorlar, ansambllar va olimlar jalb qilinadi. Festival davomida olimlar maqomning musiqiy tuzilishi, ijro an'analari,

regionlararo farqlari haqida tadqiqotlar olib borishadi. Bu esa maqomni nafaqat san'at asari sifatida, balki insoniyatning umumiy madaniy xazinasining bir qismi sifatida o'rganish imkonini beradi. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, xalqaro madaniy festivallar orqali mamlakat milliy madaniyatini dunyoga tanitish bilan bir qatorda, jahon xalqlarining yaqinlashuviga ham hissa qo'shmoqda. Kelgusida bu festival diplomatiyasini kengaytirish global hamkorlikni yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, xalqaro madaniy festivallar – bu jahon xalqlarini yaqinlashtirish, o'zaro ishonch va madaniy almashinuvni kuchaytirishning samarali vositasidir. Ular xalqlar o'rtasida do'stlikni mustahkamlab, milliy madaniyatlarning jahon madaniyatiga qo'shilishini ta'minlaydi. Shuningdek, festivallar “madaniy diplomatiya”ning muhim yo'nalishi sifatida global tinchlik, barqaror taraqqiyot va madaniy xilma-xillikni qo'llab-quvvatlaydi. Shu bois festival madaniyatlararo muloqotning samarali platformasi, O'zbekistonning boy madaniy merosini keng targ'ib etuvchi vosita sifatida tarixda alohida o'rin egallaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi materiallari, 2019 – 2024.
2. “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali rasmiy ma'lumotlari.
3. Jozef Nay. “Yumshoq kuch”. Nashriyot: “Tirilish”, 2004.
4. “Gazeta.uz” internet nashr materiallari. 2024.
5. Yuldasheva, M., & Qolqanatov, A. (2022). O 'ZBEKISTONDA MUZEY MENEJMENTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH XUSUSIYATLARI. *Oriental art and culture*, 3(1), 254-260.
6. Юсупалиева, Д. (2012). История книгоиздательского дела в Узбекистане: 1972-2011-е годы. *Каталог авторефератов*, 1(1), 1-28.
7. Kholmuminov, M., & Qolqanatov, A. (2021). The Formation of the First Libraries in Uzbekistan and the Role of Increasing the Cultural and Educational Awareness of the Population. *image*, 4(12), 146-151.
8. Юсупалиева, Д. К. (2020). Понятие и функции политической элиты. *Вестник науки и образования*, (14-2 (92)), 67-69.
9. Yuldasheva, M. B., & Qolqanatov, A. N. (2024). Kadrlar potentsiali ijtimoiy-madaniy sohada tashkilot faoliyati samaradorligini oshirishshning yetakchi omili sifatida. *Inter education & global study*, (8), 58-68.
10. Saparbayeva, G., & Qolqanatov, A. (2021). OMMAVIY BAYRAMLARNI TASHKIL ETISHDA SSENARIYNAVISLIKNING O 'RNI. *Oriental Art and Culture*, (8), 16-21.

11. Nazarbay o'g'li, Q. A., & Eldor o'g'li, J. Z. (2025). AUDIOVIZUAL INDUSTRIYA TÚSINDIRMESI. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 5(5), 122-129.
12. VA, I. E. T., & YILI, S. T. L. Imom Buxoriy saboqlari.
13. Yusupalieva, D. K. (2020). РАЗВИТИЕ ВЗАИМОВЫГОДНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА УЗБЕКИСТАНА В РАМКАХ ШОС. *Theoretical & Applied Science*, (5), 901-903.
14. Юсупалиева, Д. К. (2020). УЗБЕКИСТАН И ЯПОНИЯ-ДРУЖБА И СТРАТЕГИЧЕСКОЕ ПАРТНЕРСТВО. *Власть и общество*, (6), 4-6.
15. Юсупалиева, Д. К. (2020). Законодательная деятельность Олий Мажлиса Республики Узбекистан. *Молодой ученый*, 8, 194.
16. Юсупалиева, Д. К. (2020). Правовое и социальное государство. *Молодой ученый*, (8), 192-194.
17. Юсупалиева, Д. К. (2020). Взаимовыгодные отношения Узбекистана и Турции. *Молодой ученый*, (27), 335-337.
18. Shermanov, E. (2024). Talabalarining madaniy daxldorlik fazilatini sun'iy intellekt vositasida o'qitish texnologiyalari. *МАКТАБГАЧА ВА МАКТАБ ТА'ЛИМИ JURNALI*, 1(8).
19. Shermanov, E. (2024). Madaniy intellektning ijtimoiy soha mutaxassislarini tayyorlash jarayonidagi integratsion roli. *МАКТАБГАЧА ВА МАКТАБ ТА'ЛИМИ JURNALI*, 1(8).
20. Alfiya, Q. (2023). Milliy Musiqa San'ati Va Yoshlar Tarbiyasi. *Journal of Creativity in Art and Design*, 1, 16-20.
21. Nazarbaevna, Q. A., & Serjanovich, K. S. (2024). The Importance of Scenario in Cultural Events. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4, 259-262.
22. Юсупалиева, Д. К. (2020). ОТНОШЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА С США. In *НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА* (pp. 134-138).
23. Юсупалиева, Д. К. (2020). Традиции архитектурной культуры Узбекистана. *Modern Science*, (2-1), 23-26.
24. Юсупалиева, Д. К. (2020). РОЛЬ И МЕСТО СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ В ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ. In *Современная наука и ее ресурсное обеспечение: инновационная парадигма* (pp. 115-118).
25. Юсупалиева, Д. К. (2020). ПОНЯТИЕ И ФУНКЦИИ ПОЛИТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ. In *Фундаментальная и прикладная наука: состояние и тенденции развития* (pp. 83-85).

26. Юсупалиева, Д. К. (2020). ОБЕСПЕЧЕНИЕ МЕЖНАЦИОНАЛЬНОГО МИРА В УЗБЕКИСТАНЕ. *Modern Science*, (11-1), 330-332.
27. Юсупалиева, Д. К. (2020). УЗБЕКИСТАН И АЗЕРБАЙДЖАН-ДРУЖБА И СОТРУДНИЧЕСТВО. In *APPLIED SCIENCE OF TODAY: PROBLEMS AND NEW APPROACHES* (pp. 22-26).
28. Юсупалиева, Д. К. (2020). СОТРУДНИЧЕСТВО УЗБЕКИСТАНА СО СТРАНАМИ БЛИЖНЕГО ВОСТОКА. *Modern Science*, (3-2), 168-171.
29. Юсупалиева, Д. К. (2020). УЗБЕКИСТАН И МАЛАЙЗИЯ-ДРУЖБА И СОТРУДНИЧЕСТВО. In *Передовое развитие современной науки: опыт, проблемы, прогнозы* (pp. 125-127).